


6-topshiriq. Mavzu: O'zgaruvchanlik turlari. Mutatsiya va modifikatsiya.

Muammo: Quyidagi rasmda bir xil genotipga ega bo'lgan himolay quyonlarining turli harorat sharoitida o'sishi ko'rsatilgan. Quyonning orqa qismidagi yungining bir qismi qirqilgan va u yerga muz bog'lab qo'yilgan. Natijada o'sha joyda qora yung o'sib chiqqan.

A. Oddiy holat



B. Tajriba



Himolay quyonida yung rangining haroratga qarab o'zgarishi.

Vazifa: 1. Rasmni tahlil qiling: Agar himolay quyonining muz bog'langan orqa qismida o'sayotgan qora yungni qirib, u yerga yana muz bog'lasa, u qanday bo'lib o'sadi (oqmi yoki qora)? Nima uchun?

2. Agar quyonni issiq haroratda saqlasangiz (A rasmga qarang), u qora rangga aylanadimi yoki oqmi? Nima uchun?

3. Nima uchun tabiatda himolay quyonlarining faqat burun, quloq va oyoq uchlari qora bo'ladi? Bu hodisaning quyon yashab qolishi uchun qanday ahamiyati bor? Fikringizni "Reaksiya normasi" tushunchasi bilan bog'lang.